


Joriyo'quv yilining 15.05.2025 sanasida Buxoro davlat universiteti faollar yig'ingohida iqtidorli talabalar, magistrantlar, tayanch doktorant va doktorantlarning "Tafakkur va talqin" mavzusidagi Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumani o'tkazildi. Konferensiya davlat madhiyasi ijrosi bilan boshlandi.



Anjumanni BuxDU rektori Obidjon Xamidov kirish so'zi bilan ochib berdi. U nutqi davomida bugungi kunda mamlakatimizda yoshlarga qaratilayotgan yuksak e'tibor natijasida oliygohimizda tahsil oluvchi talabalar, magistrlar, izlanuvchilar bir qator yutuqlarga erishayotganlarini ta'kidladi. Shuningdek, xorijiy tillarni biluvchi magistrlar uchun, ayniqsa, ulkan imkoniyatlar mavjud ekanligini aytib o'tdi.

